

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**AKADEMIK LITSEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI
“ONA TILI VA ADABIYOTI” yo‘nalishining**

**1.1. “KOMMUNIKATIV SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA
YANGI YONDASHUVLAR”
MODULI BO‘YICHA
O‘QUV – USLUBIY MAJMU‘A**

BUXORO – 2024

Modulning ishchi o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2024-yil 24-avgustdagi 9 – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan vazirlikning 2024-yil “6” sentabrdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchi: BuxDU “O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika” kafedrasida
dotsenti, f.f.f.d. (PhD) N.I.Adizova

Taqrizchi: Buxoro davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika” kafedrasida professori, f.f.d.(DSc)
D.N.Yo‘ldosheva.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	22
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	29
V. GLOSSARIY	68
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	79

I. ISHCHI DASTUR

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 3- dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan filolog-pedagoglarni ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy metodlariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari:

Modulning maqsadi tinglovchilarni til va adabiyot ta'limi jarayonining yaxlitligi tamoyili, zamonaviy o'qitish usullari va qonuniyatlari, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi mavzu va ma'lumotlardan foydalanish; ona tili o'qitishning o'ziga xosligi va uni zamonaviylashtirishga amal qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy metodlari bo'yicha tinglovchilarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;

- ona tili va adabiyot ta'limidagi muammolar: ta'lim jarayoni bilan bog'liq muammolar, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarishini o'zlashtirish.

- mazkur modulni o'qitishdagi jahon mamlakatlarida qo'llanadigan tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda

kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

“Kommunikativ savodxonlikni shakllantirishda yangi yondashuvlar” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo'l va usullarini;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot- texnologiyalarini;
- ona tili va adabiyot ta'limidagi muammolarni;
- matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni;
- ona tili va adabiyot ta'limidagi tamoyillarni;
- ona tili va adabiyot ta'limidagi zamonaviy yondashuvlarni ***bilishi*** lozim.

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos ma'lumotlar bankini shakllantirish;
- lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarish;
- matn bilan ishlash yordamida shaxs kompetensiyasini shakllantirishga oid mashqlar bilan ishlash;
- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ta'lim standartlariga moslashtirish asosida tubdan yangilashni qo'llay olish ***ko'nikma va malakalariga*** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ona tili va adabiyot fanini o'qitishning samarali metodlarini fan xususiyatiga mos holda kengaytira olishi;
- barqaror atamalar, kasb-hunarga oid birliklar hamda so'zlarining shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarini anglashi;
- ona tili va adabiyot faniga innovatsion yondashuvlar, o'qitishning zamonaviy metodlari bo'yicha kreativ kasbiy ***kompetensiyaga*** ega bo'lishi lozim.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish.	2	2	2		
2.	Mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish.	2	2	2		
3.	O‘quvchi faoliyatini so‘zga ehtiyoj hosil qiladigan o‘quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so‘z boyligini oshirishni, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni shakllantirish.	2	2		2	
4.	O‘quvchilarni kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo‘l va usullarini o‘rganish.	2	2		2	
Jami:		8	8	4	4	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

1-mavzu: Til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish. (2 soat ma'ruza)

Til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish. Muloqot shakllari va nutqiy faoliyat. O'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini DTS darajasida shakllantirish usullari. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari, egallangan ko'nikma va malakalar, yangi ko'nikmalarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan

qonuniyatlar. Ta'lim olganlikni tashxis etish, Xalqaro baholash dasturining me'yoriy asoslari.

2-mavzu: Mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish. (2 soat ma'ruza)

Mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish. Og'zaki muloqot va uning xususiyatlari. Til imkoniyatlardan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

1-mavzu: O'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirishni, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni shakllantirish. (2 soat amaliy)

O'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirish, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni shakllantirish. O'quv mashg'ulotlarini til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, o'quvchining mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish. Yozma savodxonlik hamda nutq madaniyatini shakllantirishga doir mashqlar ishlash.

2-mavzu: O'quvchilarni kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo'l va usullarini o'rganish. (2 soat amaliy)

O'quvchilarni kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo'l va usullarini o'rganish. Verbal va noverbal muloqot shakllari haqida amaliy bilimlarni shakllantirish. O'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishda ona tili o'qitishning o'ziga xosligini ta'minlash va uni zamonaviylashtirish. O'quvchining ona tilida muloqotga kirishishi, fikrini og'zaki va yozma bayon qilishda qiynalishi, sodda savollarni tuza olishi, asosli javob berishda qiynalishi, o'z bilimi va kuchiga ishonmasligi, biror

xorijiy tilni o'rganishga intilishi e'tiborga olinadi. Ona tili materiallarini o'zaro bog'lab o'rganish, yiriklashtirish, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O'zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O'zbekiston, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-5850-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi. “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6084-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” gi 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

19. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
20. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg‘ona: 2016.-108 b.
21. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik.- T.: Akadem.nashr, 2012. - 416 b.
22. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
23. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
24. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
25. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.
26. Hakimov M. O‘zbek pragmlingvistikasi asoslari. -T.: Academnashr, 2013. - 174 b.
27. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O‘z.R. FA TAI, 2000-47b.
28. Safarov Sh. Kogtiniv tilshunoslik. -Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.
29. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, -T.: «Fan», 1992, 254 b.

IV. Internet saytlar

30. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
31. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
32. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
33. <http://ziyonet.uz> - Ta’lim portali ZiyonET
34. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan metoddur. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga

ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o‘z javoblarini (fikir, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




Belgilar:

- 1-ta’lim oluvchilar
- 2-aylana stol

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. SHundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



"Davra suhbat" metodining tuzilmasi

"Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.


"Rolli o'yin" metodi - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga "Rolli o'yin" metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o'yin" metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha

ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o'yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o'yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o'yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni

yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o'yin” metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o'yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.


“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:


- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo’yilgan muammoning echimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o’rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo’yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish

Reja:

1. PISA xalqaro baholash dasturidagi asosiy tushuncha va atamalar tavsifi.
2. «Kompetensiya», «asosiy tayanch kompetensiya», «savodxonlik» tushunchalari.
3. Ko‘nikma va malakaning hosil bo‘lishi

“Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari”ning 4-paragrafida tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarga tavsif berilgan. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

PISA xalqaro baholash dasturida “literacy” atamasi ishlatilgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi «savodxonlik» atamasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur atama ma’lum bir shaxsning jamiyatda mavjud asosiy tayanch kompetensiyalari majmuasini anglatadi. Bu yerda maktab darsliklaridagi bilimlari emas, balki o‘quvchining jamiyatdagi zaruriy kompetensiyalari nazarda tutilgan. Hayoti davomida o‘quvchida turli muammoli vaziyatlarni yecha olish ko‘nikmasi shakllanib boradi va ma’lum bir vaziyatlarda o‘z g‘oya va qarashlarini qo‘llay olishi orqali unda asosiy tayanch kompetensiyalari rivojlanadi. O‘rta maxsus ta’lim, mustaqil ta’lim, oila muhiti, atrof-muhit o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va shu tarzda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘radi. Kasbiy faoliyatning tarkibiy qismlari bo‘lmish “mas’uliyatlilik”, “o‘z faoliyati uchun javobgarlik”, “guruhlarda ishlash”, “o‘z natijalarini namoyish etish”, “muammoli vaziyatlarda o‘zini boshqarish” kabi shaxsiy kompetensiyalar ham asosiy tayanch kompetensiyalar bilan parallel shakllanib boradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning o'qish (reading literacy), matematika (mathematical literacy) va tabiiy fanlar (science literacy) bo'yicha tayanch kompetensiyalarini o'lchashni maqsad qilgan. Shuningdek, o'quvchilarning kompyuter savodxonligi ham tekshiriladi. Bu dasturda qatnashuvchi davlatlar uchun ixtiyoriydir. Yevropa Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan mazkur uch tayanch kompetensiyalar quyidagicha izoxlanadi:

1. O'qish kompetensiyasi o'quvchining yozma matnlarni tushunishi, foydalanishi, matnlardagi ma'lumotlarga o'z munosabatini bildirish olishi, shu orqali o'z bilim, potensialini rivojlantirish va jamiyat hayotida ishtirok etish ko'nikmasi tushuniladi. PISA xalqaro baholash dasturida o'qish tayanch kompetensiyasi uch maqsadda tekshirilib, ular quyidagilardan iborat:

1. O'qish kompetensiyasining birinchi maqsadi o'quvchilarning matnning turini aniqlashi bo'lib, unda o'quvchilarda matndagi ma'lumotlarni izlash, ajrata olish, matnni qaysi darajada tushunish va talqin qilish, matnning mazmuni va shaklini hayotga bog'lay olish va o'z munosabatini bildirish tadqiq qilinadi.

2. Ikkinchi maqsad matnning shakli bo'lib, ko'pgina dasturlarda yozma matnlar (proza matnlar) tadqiq qilingan. PISA xalqaro baholash dasturida esa boshqa shaklda topshiriqlar berilgan, jumladan, ro'yxat, formula, grafika, diagrammalar. Katta yoshdagilar o'z hayotiy tajribalarida turli matnlarga duch keladi. O'quvchilarga esa mazkur ko'nikmani shakllanganligini tadqiq qilish uchun turli matn shakliga oid topshiriqlar havola etiladi.

3. Uchinchi esa matnlardan foydalana olishlik. Bunday topshiriqlarda o'quvchilar roman, shaxsiy maktub yoki tarjimai hol ma'lumotlaridan shaxsiy hayotida foydalana olishligi, davlat meyoriy hujjatlari va e'lonlarni keng jamoatchilik uchun foydalana olishligi, qo'llanma yoki hisobotni kasbiy faoliyatda va nihoyat o'quv kitobini hamda o'quv materiallarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishi ko'nikmasi o'rganiladi.

PISA xalqaro baholash dasturining maqsadlaridan biri o'quvchilarning kundalik hayotda kuzatuvchan, o'rganishga intiluvchan va maktabda o'rganagan bilimlarini turli vaziyatlarda, holatlarda qo'llay olish ko'nikmasini tadqiq qilishdan

iborat. Albatta, bu kabi topshiriqlarning dastur vazifalari sifatida tanlab olinishi avvalambor iqtisodiy nuqtai nazardan ekspertlar tomonidan to'g'ri, deb qabul qilingan. Kasbiy faoliyatda, mustaqil hayotdagi masalalar, muammolar yoki holatlar murakkab bo'lib, bir qancha bilim, tajriba va ko'nikmalarni qo'llashni talab etadi.

IHTT tomonidan foydalanayotgan "Literacy" (savodxonlik atamasi) bilim atamasidan tubdan farq qiladi. PISA xalqaro baholash dasturida ta'lim tizimini asosiy tayanch kompetensiyalar orqali o'lchash o'z navbatida ta'limning maqsadi haqidagi tushunchalarni aniqlashtirib, taqqoslab olishni talab etadi. Ta'lim tushunchasi nafaqat ilmiy, balki ta'lim siyosati nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi lozim. Xalqaro doiradagi dasturlarda ta'lim maqsadi tushunchasi muhimligi shundan iboratki, maktab ta'limi o'zining funksional vazifalaridan tashqari qo'shimcha vazifalari borligini aniqlashtirib olish zarur bo'ladi.

Dastur ishiga mos keluvchi asosiy tayanch kompetensiyalar atamasini ilmiy adabiyotlar, o'quv-meyoriy hujjatlar tahlili asosida quyidagicha atamani qo'llash lozim deb topildi: o'quvchining asosiy tayanch kompetensiyalari deb uning yosh rivojlanishiga muvofiq maktabda va maktabdan tashqarida (mustaqil ta'lim, oilada, jamiyatda, ommaviy axborot vositalari yordamida, turli maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida) o'rgangan bilim, ko'nikma, malakalarini jamiyat, tabiat, texnika, iqtisodiyot, ijtimoiy sohalarda, shuningdek globallashuv kontekstida muammoli vaziyatlarni mustaqil tushunishi, tahlil qilishi, qaror qabul qilishi va o'z munosabatini bildirishi, uzoqni o'ylab, turli nuqtai nazarlarni (atrof-muhit, gumanizm, milliylik, vatanparvarlik, mantiqiylik, matematik modellarni qo'llagan tarzda) hisobga olgan holda o'z yechimlarini, xulosalarini, takliflarini shakllanish jarayoniga aytiladi.

Ta'rifda asosiy tayanch kompetensiyalar jarayon deb ta'riflangan va mazkur kompetensiyalar doimiy ravishda rivojlanib, shakllanib boradi.

2-mavzu. Mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish

Reja:

- 1. Mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish shakllari.**
- 2. Kommunikativ savodxonlik va uning o'ziga xosligi**

O'tgan asrning 70-yillarida Elvin Toffler o'zining "Future Shock" («Kelajak shoki») asarida ta'kidlashicha, televideniye, ma'lumotlar oqimi erta aqliy rivojlanishga olib keladi, ammo bu rivojlanishda o'zlashgan hislarning ulushi ortadi, bolaning umumiy aqliy-axborot rivojlanishi, ko'pincha, hissiy kamolotning sekinlashishi bilan birga kechadi.

Yevropa mamlakatlari hukumati topshirig'iga binoan ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilishi sirtidan qaraganda, o'qituvchining o'qitish faoliyatidan o'quvchilarning o'zlarining o'quv tashabbusi va mas'uliyatiga diqqatni qaratib, o'qitishning tashkiliy shakllari rivojlantirildi. Ammo bu bilan o'qitishning yangi shakllari "kengayib", to'liq ravishda yoki muhim kompetentlik, ya'ni har qanday ishchining zaruriy xususiyatlari sifatida mehnat dunyosida aniqlangan inson qobiliyati rivojlanishi kerak edi. Bu raqamlar bilan ishlash, axborot texnologiyalari, odamlar bilan ishlash, uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash, muammolarni hal qilish. YA'ni ta'limda kontent va faktlarni eslab qolishga asoslangan yondashuvdan ko'ra, o'quvchilar oldiga qo'yilgan masalani hal qilishda olingan bilimlar va ko'nikmalarga suyanib ish ko'rinishlariga imkon beruvchi vositalar sifatida qarash shakllana boshlandi.

Asrimizning birinchi o'n yilligida mamlakatimiz ilm-fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, jamiyat ehtiyojlarining o'zgarib borishi dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida ta'lim paradigmasini o'zgartirib, o'quv jarayoni nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish

ko'nikmalarini rivojlantirishga qarab o'zgardi. Zero amaliyotda foydalanilayotgan tizimli faoliyatli yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy va madaniy taraqqiyoti hamda O'zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlantirish strategiyasi talablariga to'la javob bermadi.

Mazkur masalani kompleks hal etish maqsadida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida uzviy o'qitiladigan umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish lozim. Aynan mazkur jihatlarni inobatga olgan holda umumiy majburiy ta'limning barcha bosqichlarida o'quv fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasini joriy etish vazifasi belgilangan edi.

Yuqorida belgilangan ana shu ijtimoiy ehtiyojlar samarasi o'laroq O'zbekistonda zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi va 2017-2018 o'quv yilidan boshlab, umumta'lim maktab o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan kompetensiyaviy ta'lim asoslari bosqichma-bosqich joriy etilib kelindi. Xalq ta'limi vazirligi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) jamg'armasi bilan birgalikda "O'zbekistonda darsliklar tayyorlanishi, chop etilishi va qo'llanilishi sohasini tartibga soluvchi siyosat tahlili" qo'llanmasida "Ijtimoiy va hissiy tarkibiy qism muvaffaqiyatli pedagogikada muhim rol o'ynaydi",- deb ta'kidlangan.

Dars mashg'ulotlari ijtimoiy bo'lib, ta'lim maqsadi ham ijtimoiy, ham akademik ahamiyatga ega. Hissiy jihat ham o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Darsliklar o'qituvchilarga o'quvchilarning nafaqat amaliy bilimlarni olishlarini, balki talqin qilish, fikrlash, hissiy ta'sir, samarali muloqot va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'minlash uchun ham keng imkoniyatlar yaratish"da yordam berishi kerak.

Bu kabi yondashuv esa, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish modeli va didaktik ta'minotini takomillashtirishni taqozo etdi.

Robert Oker «Biz bolalarga nimani emas, qanday o'ylash, fikr yuritishni o'rgatishimiz lozim. Vazifamiz bilim beribgina qolmay, ularga oqillikni ham o'rgatishdir. Oqillik esa, faqat bilimlar majmui emas, balki ulardan samarali foydalanish hamdir. Shu nuqtai nazardan, bolalarga dunyoni kashf qilishga va unda o'z nuqtai nazaridagi haqiqatni izlashga halaqit bermaslik kerak. Tasavvurni takomillashtirish, vijdonlilik va mas'uliyatni shakllantirish, mehr asosida tarbiyalash - XXI asr ta'lim tizimining asosiy masalalaridan. Umuman olganda, insoniyatning kelajakdagi mohiyati ham shunda», - deb aytadi.

O'tgan asr oxirida o'tgan ta'lim bo'yicha xalqaro kongressda pedagog olim Jak Delorf "Ta'lim - yashirin xazina" nomli ma'ruzasida "ta'lim tayanadigan to'rt jihatni ta'riflab berildi: – bu bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, yashashni o'rganish". Uning fikriga ko'ra, bajarishni o'rganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish, balki keng ma'noda kompetent bo'lish guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan juda ko'p murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olishi nazarda tutiladi. Ingliz olimi Jon Karlayl Raven shaxsning ijtimoiy jihatdan "samarali xulq-atvori xususiyatlari ro'yxati"ni keltirib, kompetentlik asoslarini yaratdi. Uning konsepsiyasiga binoan umumiy ta'lim tizimi o'quv jarayoni o'quvchilarning bilimdonlik, ijtimoiy harakatchanlik, iqtisodiy va madaniy moslashuviga har tomonlama yo'naltirilishi zarur. "Davlat maktablari mukammal ta'lim bera olishlari uchun turli xil qadriyatlar va tanlov erkinligini hisobga olib, o'z o'quvchilariga bu imkoniyatlarni yaratib berishiga to'g'ri keladi".

O'z yo'lini belgilash va ijtimoiylashuv sharoitida faoliyatga oid kommunikatsiyalarni qidirish shunday bir tushunchaga olib keldiki, unda "shaxsning o'z yo'lini belgilash jarayoni hayot faoliyatning barcha jabhalarida yuzaga keladi va u shaxsning mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligiga mos ravishda

shakllanishiga yo'naltirilgan".

Shu nuqtai nazardan, o'quvchi rivojlanishning tashuvchisi bo'lib, keyin uning tashkilotchisiga aylanadi va o'quvchining o'z yo'lini belgilashi, o'zini anglashini, o'zini rivojlantirishini hayotning o'zi talab qiladi. Ko'rib turganimizdek, kompetensiyaviy yondashuv ijtimoiy o'z yo'lini belgilash nazariyasi va amaliyotida ko'pqirrali faoliyat jabhalarini o'zida mujassamlashtiradi. O'quvchilariga kelsak, biz ijtimoiy o'z yo'lini belgilash masalalarini shaxsni ijtimoiylashtirish vositasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz, bu yerda yetakchi o'rinni kommunikativ kompetentlik egallaydi.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining PISA xalqaro baholash dasturlari mazmunida asosan odamning harakatchanligi, hurmatga asoslangan holda boshqalar bilan ochiq va samarali o'zaro munosabatlarda erkin ishtirok etish qobiliyatini aniqlash ekan, tom ma'noda bir-biriga bog'liq bo'lib borayotgan dunyoda munosib o'qish, ishlash va yashash uchun asosan kommunikativ kompetentlik hal qiluvchi ahamiyatga ega].

Kompetensiyaviy yondashuv strategiyasini o'spirin yoshining o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro bog'lab, yangilanayotgan ta'limning kontekstiga mos keladigan innovatsion mazmunini aniqlaymiz. "Insonning o'z-o'zini tashkillashtirishi uchun esa, u birinchi navbatda erkinlikka ega bo'lishi, erkin jamiyatda, qadr-qimmatini qadriyat darajasida baholanadigan jamiyatda yashashi lozim", - deydi O.Mo'minova.

Shundagina, insonning o'z-o'zini tashkillashtirishi, o'z-o'zini boshqarishi, jamiyatning o'z-o'zini tashkillashtirishi, o'z-o'zini boshqarishi darajasiga ko'tariladi. Kompetensiyaviy ta'lim yondashuvining asosiy g'oyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarga ko'proq erkinlik va mustaqillikni taqdim etuvchi sharoitlarni yaratishdan iborat. Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish muhitining o'quvchi imkoniyatlariga moslashtirilish ta'lim turi sifatida o'quvchining "fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirish"ni nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha,

uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxs sifatida voyaga yetishi uchun, jumladan, o'quvchilarni o'zo'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchining inson kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, shaxsiy hayoti va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish uchun egallashi lozim bo'lgan layoqatlar: kommunikativ bo'lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umummadaniy xislatlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Demak, shaxsga yo'naltirilgan va kompensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim bir-biri to'ldiradi, unisi ham, bunisi ham ijtimoiy ahamiyatga va o'zaro tarkibiy ta'sirga ega, degan xulosaga kelish mumkin. Biz shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning eng munosib didaktik vositasi sifatida baholab, bu biz uchun iqtisodiy-siyosiy jihatdan qanchalik foydali ekanligini izohlaymiz. Shu bilan birga, biz uchun muhimroq narsa: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kompetensiyaviy yondashuvning ikki jihati: ijtimoiy moslashuvchan va ekzistensial rivojlanishni integrativ bog'lashga imkonini beradi.

Ekzistensiya shaxsning o'z – o'ziga beradigan bahosi, o'z – o'zini qadrlash darajasi. Demak shaxsning o'zini – o'zi baholash darajasi qancha past bo'lsa, uning ijtimoiy foydali bo'lmagan holatlarga, jamoatlarga integratsiya bo'lishi shunga yuqori bo'ladi. Psixolog olim M.A.Xolodnayaning yozishicha: “Yosh avlodning intellektual qobiliyatlarini ekstensiv va intensiv rivojlanishini kafolatlaydigan eng mukammal ta'lim tizimini yaratishga qodir bo'lgan mamlakatlar madaniy va iqtisodiy rivojlanishda g'olib bo'lishadi”.

Olima V.Y.Lyaudis shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini “endi yangi turdagi shaxsiyatda ijtimoiy rivojlanishga bo'lgan chuqur ehtiyojning namoyon bo'lishidir. Innovatsion ta'lim ommaviy ta'lim strategiyasi sifatida inson “materiali”ni tubdan o'zgartirishga olib keladi”, -deb yozgan edi.

Mavjud ilmiy yondashuvlar nuqtai nazaridan innovatsion ta'lim bu muammoni hal qilishga qodir bo'lgan va o'z kelajagini qurishga ishtirok etishga

tayyor shaxsni tarbiyalashni ta'minlaydigan maqbul tizimdir. Olimlarimiz N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayevlar "Innovatsion ta'lim o'quvchining ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi", - deb yozgan edilar.

Innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi shaxsning o'zini o'zi anglashi, tashxislashi va uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir. Shundan kelib chiqadigan xulosa, innovatsiya o'z holicha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli emas, balki uning umumiy ta'limni qayta qurish tizimiga amaliy integratsiyasi, kompetensiyaviy yondashuvning integrativ yaxlitligidir.

Anglashiladiki, ulg'alayotgan shaxsning innovatsion rivojlantirish jarayonning asosini uning alohida shaxsiy xususiyatlaridan ozod bo'lishi va keyinchalik kompetentlikni rivojlantirishi tashkil etadi. Binobarin, kompetensiyani rivojlantirish bilan bog'liq barcha narsalar, shu jumladan kommunikativ kompetensiya, bugungi kunda prinsipial jihatdan innovatsion, o'quvchilarning shaxsga yo'naltirilganligi pedagogik jihatdan tanlangan yangilik.

Kompetensiyaning ko'plab talqinlari bilan bog'liq holda uning yagona haqiqiy ta'rifini shakllantirish mushkul. Amaldagi barcha lug'atlar, jumladan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" va "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi tarif (u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba) "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini chegaralab qo'yadi. Ushbu atamaning mazmun va mohiyatini pedagog, psixolog, iqtisodchi va metodist olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi.

Rus tadqiqotchisi N.I. Mayorova "bu bilan bog'liq bo'lgan muammo psixolingvistika nuqtai nazaridan izohlanadi: "kompetensiya" tushunchasi ramziy ma'noga ega bo'lib, haqiqatan ham mavjud obyektlar bilan bog'liq emas va shuning uchun ularni aslida ko'rsatib bo'lmaydi. Boshqa tomondan, ushbu konsepsiya har qanday bilim sohasi uchun universaldir, shuning uchun uning yagona, mutlaqo to'g'ri ta'rifini yaratish deyarli mumkin emas",- deb biladi. Ushbu tushunchalarni ilmiy-nazariy ajratish haqidagi ba'zi konstruktiv fikrlarni

B.I.Hasan asarlarida keltirilgan: «Kompetensiya – bu da’vo qilingan yoki erishish uchun maqsad etib belgilangan sifat, kompetentlik – bu ma’lum bir odam xohlagan yoki zimmasiga yuklangandan keyin erishgan qiymatlikdir”. Jiddiyroq farqlarni A.V. Xutorskoyning quyidagi ta’riflarida ko’rish mumkin: «Kompetensiya shaxsning muayyan predmet va jarayonlarga nisbatan o’zaro chambarchas bog’liq hamda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo’lgan bo’lgan xususiyatlar (bilimlar, ko’nikmalar, malaka, faoliyat yuritish usullari) yig’indisidir. Kompetentlik esa, insonning faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatini o’z ichiga oluvchi muayyan kompetensiyaga ega ekanligidir. A.V.Xutorskoy kompetentlik tushunchasiga ta’rif berganda, shaxsning nafaqat kasbiy tajribasi, balki uning bilim doirasi kengligini ham nazarda tutadi. Binobarin, kompetentlikka ega bo’lish muayyan bilimlar va muayyan layoqatga ega yoki muayyan holatdan xabardor bo’lish, kompetensiyaga ega bo’lish esa, muayyan bir sohada ma’lum imkoniyatlarga ega bo’lish demakdir. G.K.Selevko quyidagicha fikr yuritadi: «Kompetensiya” tushunchasi ko’pincha quyidagilarni ifodalash uchun qo’llanadi: haqiqiy uslublar, faoliyat vositalariga ega bo’lish, berilgan vazifalarni uddalash imkoniyatlari, o’quvchining tayyorgarligi, «qobiliyatlilik» bilan namoyon bo’lgan ta’lim natijalari; atrof-muhitni o’zgartirish maqsadlarini belgilash va ularga erishishga imkon beradigan bilim, ko’nikma va malakalarni birlashtirish shakli.

Rus tilidagi «-ost» o’zbek tilida «lik» suffiksi ma’lum bir sifatni o’zlashtirish darajasini anglatadi. “Kompetentlik” deganda ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning qo’lga kiritilgan umumiy qobiliyati va to’plangan bilim va tajribaga asoslangan faoliyatga tayyorligida namoyon bo’ladigan integrativ sifati tushuniladi.

Olima O.Musurmonova “Kompetentlik deganda ko’pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligiga namoyon bo’luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko’nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo’naltirilganligi, muammoni his qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo’lishi kabi sifatlarni o’z ichiga oladi.

“Kompetentlik” tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog‘liq”, - deb ta’kidlaydi.

Demak, kompetensiya va kompetentlik o‘rtasida sezilarli darajada aniq farq bor va bu biz uchun muhimdir, «kompetentlik» tushunchasi «kompetensiya» tushunchasiga qaraganda subyektiv-shaxsiy omilning yuqori darajada namoyon bo‘lishidan darak beradi.

Kompetentlik – bu shaxsning muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlarni bajarishga tayyorligi, eng muhim jihati bu biron tanish yoki yangi notanish faoliyatni bilim, qobiliyat, tajriba, munosabat va hokazolarning organik birligi asosida amalga oshirish. Ma’lum bo‘lishicha, aqlli, ijodkor, iqtidorli bo‘lmagan o‘quvchilar ham muayyan faoliyat turlari uchun rag‘batlantirilsa va amaliy tajriba to‘plasa intellektual jihatdan muvaffaqiyatli deb nomlanish huquqiga ega. Bunga qo‘shilmaslik qiyin, ayniqsa, bunday vaziyat kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchalarini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim oqimiga osonlikcha o‘zgartiradi.

Kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida «faoliyat» va «kommunikativ refleksiya» tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz. Ta’lim faoliyati pedagogik ta’sir vositasida amalga oshiriladi va o‘quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga kiritishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Ta’limning faoliyatida o‘quvchi shaxsiyatining barcha jihatlari, jumladan, qobiliyat, ehtiyoj, motiv, qiziqish, iroda bilish vositasi hisoblanadi. Bu yerda o‘quv faoliyati bilish faoliyatining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi, unda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim prinsiplari nuqtai nazaridan pedagogik o‘zaro ta’sir dialog tarzida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladi.

Dialogik o‘zaro ta’sir natijasida inson ma’naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga bo‘lgan harakat namoyon bo‘ladi. O.Musurmonova “kommunikativ refleksiya - muloqot jarayonida sheriklarining o‘zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishlari” deb

ta'kidlaydi. «O'z-o'zini anglash jarayoni uchta asosiy bosqichdan o'tadi. Dastlab, har qanday yuqori xulq-atvor shaklini o'quvchi faqat tashqaridan o'zlashtiradi. Nihoyat, uzoq muddatli rivojlanish jarayonida u ushbu funktsiya tuzilishini anglashni, o'zining ichki operatsiyalarini boshqarishni va ularni tartibga solishni boshlaydi», – deb yozadi L.S.Vigotskiy. Keltirilgan iqtibos faoliyat mazmuni va samaradorligi «ijtimoiy omil»ga kuchli ta'siridan dalolat beradi.

Demak, bilim ishlab chiqarish faoliyati va ijtimoiy faollashuv yaxlitligi asnosida o'zlashtiriladi. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish natijasida o'quvchi u yoki bu ijtimoiy rolni anglash, o'ziga xos sohadagi faoliyati davomida tajriba orttirish va fikrlashi orqali ushbu rolni tanlash yoki rad etish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bizning fikrimizcha, kompetentlik o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini maksimal darajada aks etadi, chunki u inson uchun o'zining ijtimoiy yo'lini tanlashni faollashtiradi va majburiy qiladi. Shaxsiyat, oxir-oqibat, qaysi ijtimoiy strategiyalarni rivojlantirishini va qaysi ijtimoiy sohada uning bilimlari va qobiliyatlari namoyon bo'lishi mumkinligini belgilaydi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muhitida ijtimoiymoslashuv va ekzistensial rivojlanuvchi jihatning o'zaro bog'liqligi umumiy o'rta ta'lim bosqichida kompetensiyani pedagogik innovatsiya sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Pirovard natijada, kommunikativ kompetensiyaning innovatsion mazmuni mazkur yondashuvning tarkibini belgilaydi.

O'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini ijtimoiy-madaniy kompetentlik nuqtai nazaridan takomillashtirish quyidagi yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi:

1) kompetent (kompetensiyaviy) yondashuv kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarining yaxlit tizimini va ta'lim oluvchilarning shaxsiy mas'uliyatini shakllantirishga yordam beradi;

2) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir o'quvchiga bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi va amalda qo'llashi, o'z faoliyatini rejalashtirishi, uning natijalarini tahlil qilishi va baholashi, jamoada hamkorlik munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarining shakllanishi uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, quyidagilarni tasdiqlashimiz mumkin:

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan uyg'unlashgan kompetensiyaviy yondashuv g'oyalari pedagogik yangiliklar uchun sharoit yaratadi, uning natijasida o'quvchi shaxsiyatining shakllanishiga qulay imkoniyat paydo bo'ladi;

2. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetentlik o'quvchining o'z-o'zini ijtimoiy belgilashning shaxsiy instrumenti sifatida foydalanishi tufayli kommunikativ hisoblanadi;

3. O'quvchi kommunikativ kompetentligining tuzilishi va uning mazmuni kompetensiya tarkibiy qismlari (bilim, refleksiv-motivatsion va kognitiv faoliyat)ning didaktik yaxlitligi bilan belgilanadi

IV AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot. O'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirishni, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni shakllantirish

Reja:

1. Xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchi faoliyatini rivojlantirish
2. O'quv mashg'ulotlarining tashkil etish bosqichlarini

PISA xalqaro baholash dasturining topshiriqlari quyidagi asosiy tayanch va fanga oid kompetensiyalarni va ularning qismlarini talab etadi:

- ilmiy matnlarni o'qish;
- grafik, rasmi, eskizli topshiriqlarni talqin qilish;
- ma'lumotlardan xulosa chiqarish;
- aqliy modellarni yaratish;
- tezislarni asoslash, gipotezalar tuzish va qarama-qarshilikni taqqoslash;
- muammolarni maqsadli verbalizatsiya qilish, biror pozitsiyani egallab, faktlarni baholash.

Topshiriqlar bilimlarning qo'llanilishiga, fanlararo bilimlarning o'zaro integratsiyasiga, qaror qabul qilish, o'z yechimini baholash, xatolarni chamalashga qaratilgan. Dastur topshiriqlari aynan bir o'quv mashg'uloti mavzusi bilan chegaralanmaydi, balki asosiy tayanch va fanlararo kompetensiyalarni baholaydi. Shuningdek, mazkur topshiriqlar o'quv jarayonini emas, balki baholash vaqtidagi o'quvchining savodxonligini tekshiradi. Topshiriqlar jamiyat, atrof-muhit, tabiat hodisalari, texnika va texnologiya, insoniyat taraqqiyoti, salomatligi, global va kundalik hayot, zamonaviy fanlarga oid vaziyatlar, holatlar, ma'lumotlar va muammolarga bog'lagan holda ishlab chiqiladi. Misol tariqasida hozirda dolzarb bo'lgan global iqlim o'zgarishi, epidemiya, digitalizatsiya (axborotni raqamli

shaklga o'tkazish) va shu kabilar topshiriqlar kontekstida qo'llanilishi mumkin. Dastur o'tkazilgan turli yillarda qo'shimcha ravishda asosiy tayanch kompetensiyalardan tashqari, qo'shimcha so'rovnomalar asosida o'quvchilarning texnikaga oid kompetensiyalari (2006 yili tekshirildi), kreativ fikrlashi (2022 yili) tekshiriladi.

Topshiriqlar bir qancha qism topshiriqlar (Units)lardan iborat bo'ladi. Har bir qism topshiriqlar o'z navbatida 4 tagacha vazifalarni (Items) o'z ichiga oladi. Qism topshiriqlar mazmuni va tuzilishi jihatidan bir-biriga bog'liq va bir-birini o'zaro to'ldirib boradi. Bir topshiriqdagi rasm, jadval yoki grafik barcha qism topshiriqlar va vazifalarga tegishli bo'ladi. Topshiriqlarning qo'yilishida kontekst ma'lumotlar beriladi va bu ma'lumotlar barcha qism topshiriqlar uchun umumiy hisoblanadi. Qism topshiriqlarda imkon qadar topshiriqning barcha jihatlari, jumladan tahmin qilish, ehtimollikni tasavvur qilish, o'z munosabatini bildirish, qaror qabul qilish, umumlashtirish, tahlil qilish, tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

Qism topshiriqlar ichida 5 xil formatdagi vazifalar qo'yilgan bo'ladi. Xususan:

- bir qancha to'g'ri javobli topshiriqlar;
- bitta to'g'ri javobli topshiriqlar;
- qisqa javob berilishi lozim bo'lgan topshiriqlar;
- ikkitasi yopiq formatdagi kompleks;
- multiple choice topshiriqlar kiradi.

O'quv mashg'ulotlarining tashkil etish bosqichlarini samarali rejalashtirishda o'quv maqsadlariga mos topshiriqlarning tanlanishi, didaktik jihatdan asoslanishi va ta'lim maqsadlariga yo'naltiruvchi didaktik vosita sifatida tanlashi o'qituvchining professional yondashuviga bog'liq bo'ladi.

Topshiriqlarning asosiy vazifasi davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan asosiy tayanch va fanga oid kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi didaktik vosita bo'lishdir. O'qituvchi topshiriqlar orqali o'quv jarayonini moslanuvchanligi va to'liqligiga erishishi lozim. O'quv jarayonida qo'llaniladigan

topshiriqlar o'quv va nazorat topshiriqlariga bo'linadi.

O'quv topshiriqlari yangi mavzuni mustaqil yoki sinfda o'rganish maqsadida tuziladi. O'quvchilar o'quv topshiriqlarini o'zaro almashishlari va taqqoslashlari, topshiriqning yechish usullarini muhokama qilishlari va yechimlarini taqqoslashlari mumkin bo'ladi.

O'quv topshiriqlari oldindan ko'rsatilgan usullarni o'quvchining mustaqil qo'llash ko'nikmasini shakllantirish uchun qo'llaniladi. Fan darsliklarida o'quv topshiriqlari murakkabligiga qarab belgilab qo'yilgan. Yuqori murakkablikdagi topshiriqlarning bajarilishi o'quvchining mazkur mavzu bo'yicha yaxshi o'zlashtirganligini belgilaydi. Nazorat topshiriqlari orqali o'quvchining individual savodxonligi baholanadi. Nazorat topshiriqlari ko'p hollarda bir qancha o'quv topshiriqlarining birlashmasidan iborat bo'lib, ma'lum vaqtda o'tilgan mavzularga oid bir qancha topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Mazkur topshiriqlarda mavzulararo topshiriqlar kamdan-kam uchraydi va asosan mavzularga oid topshiriqlardan iborat bo'ladi. O'quvchilar ko'p holatda bunday topshiriqlarni chorak yakunlari yoki sinfdan sinfga ko'chish imtihonlarida yechishadi. O'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlarning asosiy maqsadi olingan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, turli holatlarda qo'llab ko'rish, egallangan bilimni baholashdan iborat. Aksariyat topshiriqlar bir bosqichli topshiriqlardan iborat bo'lib, bir savol yoki atamani izohlash, bir amalni bajarishdan iborat bo'ladi. O'quv va nazorat topshiriqlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'p topshiriqlar o'quvchining asosiy tayanch va fanlararo kompetensiyalarini shakllanishiga yetarli vosita vazifasini bajarmaydi.

Amaliyotda topshiriqlar savol tariqasida tahrir qilinadi va faqat o'zlashtirilgan mavzuga oid holda ishlab chiqiladi. O'quv topshiriqlari dars mashg'ulotiniing maqsadiga erishishini belgilab beruvchi indikator vazifasini o'taydi. O'quv va nazorat topshiriqlari o'quv natijalariga erishilganlikni tekshirish imkoniyatini belgilab beradi. Nazorat topshiriqlari esa o'quvchidan topshiriqlarni «o'quv jarayonida emas, sinov jarayonida deb qabul qilish talab etiladi va o'quvchining hozirgi holatdagi bilim daraja-si belgilanadi».

O'quv topshiriqlari PISA xalqaro baholash dasturi topshiriqlaridan quyidagi

jihatlari bilan farq qiladi:

1. O'quv mashg'ulotlarida ma'lum fanga oid bilimlar tizimli o'qitiladi va mavzular oddiydan murakkabga qarab tizimlab chiqilgan. Bu ketma-ketlik o'quvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlaydi, birinchi mavzu bilan ikkinchi mavzu uzviy bog'langan bo'ladi. Bu tizimlilikning kamchiligi esa o'quvchida fan va fanning ma'lum bo'limlari bo'yicha umumiy tasavvuri mazkur fan bo'limi yoki bobni yakunlanganida ifodalanadi.

2. O'quv mashg'ulotida tizimlilikdan tashqari, imtihon va sinovlarga oid bilimlar, savollar, atamalarga katta e'tibor qaratiladi. Bu mavzular, atamalar va imtihon topshiriqlariga o'xshash topshiriqlar imkon qadar qayta-qayta tekshiriladi.

3. Uy vazifasi sifatida ham mustahkamlash topshiriqlari beriladi. O'quvchi o'qituvchi tomonidan berilgan barcha topshiriqlarni to'liq va sifatli bajarishi yaxshi baho uchun shart-sharoit hisoblanadi.

4. O'quvchilarga amaliyotga, kundalik hayotga yoki global hayotga oid mustaqil izlanish, o'quvchining kreativligini va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar kamdan-kam holatlarda tavsiya etiladi. Bunday topshiriqlarning berilmasligi sababi hamma vaqt ham yakuniy yechimga erishmaslik, dars mavzulariga bevosita aloqadorlikka ega emasligi va o'quv jarayoni qat'iy reja asosida tashkil etilishi bunga imkon bermasligidadir. Shuningdek, o'qituvchi darslikdan, jumladan, mavzudan tashqari topshiriq ishlab chiqishi va o'quvchilarga taqdim etishi amaliyotda kam kuzatiladi.

Hozirgi kundagi o'quv mashg'ulotlari «axborotni yodlash va band qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'squinlik qilmoqda». Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv mashg'ulotida o'quvchilarning asosiy tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'quv topshiriqlari hamda mazkur kompetensiyalarni tekshirish, o'lchash uchun nazorat topshiriqlari muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilarga ko'p holatlarda to'liq, kompleks topshiriq ustida emas, balki shu kompleks topshiriqning bo'laklari yoki «qism topshiriqlari» beriladi.

O'qituvchi topshiriqlarni ishlab chiqishda yoki tatbiq etishda baholash meyorlarini ishlab chiqadi. Baholash jarayonining ko'pligi va doimiyliigi o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham bosim sifatida qarash mumkin. Topshiriqlar ham ko'p holatlarda aynan baholash funksiyasi uchungina xizmat qiladi. O'quv topshiriqlari o'quvchilarning o'quv mashg'ulotida o'rgangan bilimlarini mashq qilish, bilimlarni turli holatlarda va shakllarda qo'llash, sinab ko'rish uchun ishlab chiqiladi.

Pedagogikaga oid so'nggi ilmiy-tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, oxirgi vaqtlarda, ayniqsa turli xalqaro baholash dasturlarining qamrovi kengaygan davrda, o'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlarga e'tibor kuchaygan. Albatta, bu borada PISA xalqaro baholash dasturining ahamiyati juda katta. Shuning uchun topshiriqlar o'qitish va o'qish jarayoni dasturiga oid ilmiy izlanishlarning asosiy elementi bo'lib qolmoqda. Jumladan, topshiriqlarning fanlar didaktikasiga mos ravishda sifatli ishlab chiqish, topshiriqlar ishlab chiqish bosqichlarining shakllanishi, o'qituvchilar malakasini oshirishda topshiriqlar ishlab chiqishga oid mavzularning muhokama qilinishi, sinov va o'quvchilarning savodxonligini tashxis qilish topshiriqlarini rivojlantirishning ahamiyati amaliyotda va ilmiy dasturlarda ortib bormoqda.

PISA xalqaro baholash dasturida qo'llanilgan topshiriqlarga o'xshash topshiriqlarni o'quv jarayoniga keng tatbiq qilish va shu orqali o'quvchilarning asosiy tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ishtirokchi davlatlarning ta'lim strategiyalaridan biri hisoblanib, topshiriqlar yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Mazkur paragrafni yoritish davomida topshiriqlar ishlab chiqishning metodik jihatlari, shuningdek, PISA xalqaro baholash dasturidagi topshiriqlarga mazmun va tuzilishi jihatidan o'xshash topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Dasturda uchta asosiy tayanch kompetensiya tadqiq qilinishi va har bir kompetensiyaga oid topshiriqlar mazmuni, tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qilishi hisobga olinib, tabiiy fanlarga oid topshiriqlarni ishlab chiqishning metodologik jihatlari tadqiq qilindi. O'quv topshiriqlari baholash jarayoni nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

PISA xalqaro baholash dasturida yuqori natijalarga erishib kelayotgan davlatlarning ta'lim siyosati, o'quv jarayonlari, o'quv-meyoriy hujjatlari, ta'limning mazmuni boshqa davlatlar tomonidan atroflicha o'rganila boshlandi. Jumladan, Singapur, Gonkong, Kanada, Finlyandiya, Yaponiya davlatlarining dasturlarda erishib kelayotgan natijalari ko'plab pedagogik izlanishlarning dasturiy obyektiga aylanib bormoqda. Dastur topshiriqlari o'z navbatida ishtirokchi davlatlarda «topshiriqlar ishlab chiqish» an'anasini boshlab berdi. «Topshiriqlar an'anasi» tushunchasi deganda o'quv mashg'ulotida topshiriqlarni maqsadli va maqbul ravishda qo'llash tushuniladi. C.Aufshnayter (C.Aufschnaiter) fikricha, «topshiriqlarning o'quv mashg'ulotida tizimli qo'llash optimal o'quv jarayoniga hal qiluvchi ta'sir»ga ega.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlar bo'yicha jahon tajribasi tadqiq qilinar ekan, amerikalik olim R.Xavigxurstning (R.Havighurst) “development task” ya'ni rivojlantirish topshiriqlari tamoyili muhim ahamiyatga egadir. R.Xavigxurst (R.Havighurst) “development task” atamasini quyidagicha ta'riflaydi: “rivojlantirish topshiriqlari hayotning har bir qismida bajariluvchi topshiriqlar bo'lib, shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi va erkin yashashini ta'minlaydi”. Olim mazkur rivojlantirish topshiriqlarining uchta komponentini ko'rsatib o'tadi: fiziologik yetilganlik, madaniy bosim (jamiyatdagi talablar) va shaxsiy maqsadlar, qadriyatlarning shakllanishi¹⁰⁶ hisoblanadi. Zamonaviy fanlarda mazkur manbalar shaxsiy ko'nikmalarning rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy rivojlanish meyorlari va shaxsiy maqsadlarning rivojlanishi deb ham tavsiflanadi. Rivojlanish psixologiyasida mazkur komponentlar shaxsning atrof-muhit, jamiyat bilan aloqasi va shu orqali shaxsning rivojlanishida faol rolni bajaradi. Olim «rivojlanish» atamasiga ta'rif berar ekan, rivojlanish «yashab o'tgan hayotining natijasi, shu bilan birga kelajak vazifalarini qay darajada qabul qila olishi ko'nikmasi» deb ta'riflaydi. Kelgusi hayotiy, mehnat va shaxsiy faoliyatidagi vazifalarni qabul qilish, shu vazifalarni bajarish uchun zaruriy bilim va ko'nikmalarni egallash va qabul qilish ko'nikmasini «insoniyat rivojlanishining motori» deb ta'riflaydi.

Quyidagi jadvalda rivojlantirish topshiriqlari berib o'tilgan. Rivojlanish har doim oldingi hayot bosqichidagi vazifalarning mukammal bajarilishi bilan ta'minlanadi.

BOLALIK DAVRIDAGI RIVOJLANTIRISH TOPSHIRIQLARI

- (□emotsional boshlang'ich ishonchning shakllanishi;
- (□intelligensiyaning rivojlanishi;
- (□til va motorik qobiliyatining rivojlanishi;
- (□bazaviy ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishi.

O'SMIRLIK DAVRIDAGI RIVOJLANTIRISH TOPSHIRIQLARI

- (□intellektual va ijtimoiy kompetensiyalar;
- (□o'ziga do'st qidirish va do'st bo'lish qobiliyati;
- (□o'z ehtiyojlari uchun xaridlar qilish qobiliyati;
- (□meyorlar va qadriyatlar tizimining rivojlanishi.

KATTA YOSHDAGI RIVOJLANTIRISH TOPSHIRIQLARI

- (□iqtisodiy jihatdan o'zini o'zi ta'minlash;
- (□oila qurish va farzandlarni tarbiya qilish;
- (□madaniy, ijtimoiy hayotda faol ishtirokchi va iste'molchi bo'lish;
- (□siyosiy faollik.

Savodxonlik deganda o'quvchilarning o'zidagi mavjud bilimlarni turli muammoli vaziyatlarda foydalanishi tushuniladi. Bilim hech qachon "ichkilashtirilmagan" bo'lishi lozim, ya'ni bilim baho yoki imtihon uchun emas, balki "tatbiq etish", "sinab ko'rish", "foydalanish", "o'zini baholash va mustaqil qaror qabul qilish", "muomala qilish" uchun zarur ekanligi ta'kidlab o'tiladi. (Variant: O'quvchining bilimlari hech qachon "ichkilashtirilmagan" bo'lishi lozim, ya'ni o'quvchilarga bilim baho yoki imtihon uchun emas, balki "tatbiq etish", "sinab ko'rish", "foydalanish", "o'zini baholash va mustaqil qaror qabul qilish", "muomala qilish" uchun zarur ekanligi ta'kidlab o'tilishi kerak.)

PISA xalqaro baholash dasturi topshiriqlarida tushunish so'ralmaydi, balki o'quvchilardan o'rganganlari asosida topshiriqqa kreativ yondashib, muammoni hal etish so'raladi, egallangan bilimlar va ko'nikmalar "foydalanish uchun"ligi tekshiriladi. Shu o'rinda bilim fanning mazmuniga ichki bog'liqlik, qarorlarni

boricha qabul qilish, kompetensiya esa tashqi bog‘liqlik va qarorlarni muhokama qilish, amalga oshirish orqali qabul qilishdan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. PISA xalqaro baholash dasturi o‘quvchilarning majburiy ta’limning yakunida, ya’ni o‘rtacha 15 yoshli o‘quvchilarning asosiy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishini tadqiq etadi. Shuningdek, tadqiqot topshiriqlari o‘quvchilarning 3 yillik sikl oralig‘ida rivojlanib borish tendensiyasini o‘rganib boradi. Baholash tadqiqoti mobaynida o‘quvchilarning asosiy tayanch kompetensiyalarining profillari, shuningdek, tadqiqotda ishtirok etuvchi o‘quvchilarning demografiyasi, oila va maktabdagi muhit hamda mazkur mezonlarni o‘quvchilarning asosiy tayanch kompetensiyalariga bog‘liqligi o‘rganiladi. PISA xalqaro baholash dasturi ma’lum bir davrdagi asosiy tayanch kompetensiyalarni o‘lchash imkoniyatini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvli o‘quv jarayoni o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini va refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. «O‘quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishda o‘zaro bog‘liq ikki vazifani e’tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifasi; ikkinchisi – o‘zlashtirilgan bilimlarni ta’limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo‘llay olishga o‘rgatish vazifasi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

- o‘quvchilar o‘zini ko‘proq mustaqil va o‘zini o‘zi boshqaruvchi subyekt sifatida his etishi, erkin so‘zlashi va faol ishtirok etishi;
- o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonlarida ular yetakchi rolni egallashi, o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilishi;
- kelgusida o‘zi qiziqqan kasb-hunarni egallashi uchun ta’lim-tarbiya manbasi sifatida xizmat qiladigan hayotiy tajribalarni egallashi;
- ta’lim va mustaqil ta’lim olish, kasb-hunar o‘rganishdagi mavjud sun’iy to‘siqlarni bartaraf etish uchun muhim hayotiy muammolarni hal etish yo‘nalishida amaliyotni o‘rganishi;

- o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo‘lishi, buning amaliy ahamiyati va zaruriyatini anglab yetishi, intilish hissiyotlarini shakllantirishi;
- shaxsiy sifatlarni shakllantirishi va rivojlantirishi;
- o‘z faoliyati natijalari va imkoniyatlari darajasini obyektiv baholashi, refleksiv tafakkurini rivojlantirishidan iborat.

Refleksiv yondashuv jarayonida o‘quvchilar o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qilishi va obyektiv baholashi (mustaqil refleksiv faoliyat ko‘rsatishi) uchun, o‘qituvchilar esa mavjud ta’limiy vaziyatlarni o‘z vaqtida tahlil qilib borishi hamda o‘quvchilarning o‘z tushunchalari, xatti-harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, o‘quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Kompetensiyaviy yondashuvli o‘quv jarayonining asosiy maqsadi o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishdan iborat. Bu yondashuvda o‘quvchilar qanday maqsadlarga erishishi shaffof bo‘lib, o‘quv jarayoni markazida o‘quv topshiriqlari bo‘ladi. Bu o‘quv topshiriqlarini yechish orqali o‘quvchi asosiy tayanch kompetensiyalarni egallaydi. Asosiy tayanch kompetensiyalar nafaqat topshiriqlarni bajarish bilan, balki topshiriqning mazmun-mohiyatini mushohada qilish, unga nisbatan o‘z munosabatini shakllantirish, o‘z natijalariga tahliliy yondashuv va tushunmovchiliklarni aniqlashtirish orqali shakllanib boradi.

2-amaliy mashg'ulot. O'quvchilarni kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo'l va usullarini o'rganish

Reja:

- 1. Kommunikativ savodxonlik tushunchasi**
- 2. Kommunikativ savodxonlik darajasini rivojlantirish yo'l va usullari**

“Yomon odatlar muzeyi”. Taniqli pedagog R.Ishmuhammedov va boshqalar tomonidan tavsiya etilgan bu trening o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar uchun tashkil etildi.

a) mazkur trening o'qituvchilar uchun maktab ma'muriyati rahbarligida yosh va tajribasiz pedagoglar uchun ullardagi qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubini bartaraf etish uchun quyidagicha tashkil etildi. Qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubiga, odatda, yosh, tajribasiz o'qituvchilarda uchraydi. Ushbu uslub asosida boshlangan muloqot, ko'pincha, o'quvchilarni tez-tez ogohlantirish, ularni qatgiqko'llik bilan tarbiyalashga harakat qilish, o'qituvchi yoqtirmagan hatgi-harakatni ta'qiqlash vaziyatida olib boriladi. O'quvchilar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi.

Natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida ko'z ilg'amas qaramaqarshiliklar paydo bo'ladi. Ba'zan o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan, yoki o'qituvchining o'quvchilar yosh xususiyatlari, fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi. Mazkur trening muloqot jarayonidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etishda asosan o'qituvchining o'zi qizg'in faoliyat olib borishini ta'minladi. O'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar. O'quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarni, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan o'qituvchi timsolida anglab olishini unutmaslik kerak. Trening natijasi o'laroq o'quvchilar jamoasida o'qituvchilar bilan o'zaro

munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslandi.

b) O‘quvchilar uchun mazkur trening quyidagi tartibda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda tashkil etildi: Muloqot jarayonidagi yomon odatlar shaxsga ta’sir etmasligi uchun sinfxonada "Yomon odatlar muzeyi"ni tashkil etildi. o‘quvchilarga "Yomon odatlar muzeyi" loyihasini yaratishni va muzeyga topshirish mumkin bo‘lgan zararli odatlar ro‘yxati va eksponatlar (jargon so‘zlar, lakablar, gap qaytarishlar, luqmalar, suhbatdosh sherikni tinglamaslik) kommunikatsiyaning yomon odatlari sifatida aniqlandi. Keyinchalik bu muzey barcha o‘quvchilar, tarbiyachilar, ta’lim muassasasi xodimlari, ota-onalar uchun qulay bo‘lgan joyda erkin harakat qilishga mo‘ljallandi. Sinfxonda tashkil etilgan “Yomon odatlar muzeyi” eksponatlari o‘quvchilarning «Kommunikativ kundalik» mazmuniga qiyosiy tahlil uchun obyekt sifatida belgilandi.

Kommunikativ hujum. Tadqiqot jarayonida biz tomondan dars jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini jadal rivojlantirishga mo‘ljallangan ilg‘or xorijiy tajriba - “kommunikativ hujum” metodi o‘rganilib, mamlakatimizning keng pedagoglar ommasiga taqdim etildi.

«Kommunikativ hujum» - o‘zaro ta’sir ettirishning dastlabki onlarida o‘qituvchi o‘quvchilarni bevosita faol muloqot olib borish maqsadida tezda jalb qilish texnikasi, dinamik ta’sir va o‘zini salobatli qilib ko‘rsatish usuli.

"Kommunikativ hujum"ning asosiy xususiyatlari: bu muloqotda tashabbuskorlik va yaxlit kommunikativ ustunlikka ega bo‘lishni, tinglovchilar bilan muloqotni samarali boshqarishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Shu asosda ular tomonidan pedagogik muloqot nazariyasi va amaliyotida "kommunikativ hujum"dan foydalanishni taklif qiladi. Tabiiyki, o‘qituvchi muloqotni, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashabbuskori va yetakchisi bo‘lishi zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- «biz» sezgisini vujudga keltirish;
- o‘quvchilarga ta’sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- o‘zini sinf (guruh) haqida ijobiy fikrga ega ekanligini his ettirish;
- faoliyatning aniq maqsadlarini ko‘rsatish;

o'quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish va ularga buni sezdirish;
ayrim talabalarga nisbatan shakllanib borayotgan stereotip fikrlarni
o'zgartirish.

Bularning hammasi yosh o'qituvchi faoliyatida samarali muloqot o'rnatishda
to'siqlarga barham beradi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishni boshidanoq, uning e'tiborini
o'ziga jalb qilishi, ya'ni o'z-o'zini taqdim etishi lozim. Va bu yerda ushbu
masalani hal qilishga imkon beradigan "kommunikativ hujum" usulidir.
"Kommunikativ hujum" o'qituvchining auditoriyaga paydo bo'lgan paytidan
boshlab o'ziga xos kommunikativ "bosimini" ta'minlaydi, bu esa,
kommunikatsiyada professional va pedagogik aloqalarni o'rnatish zarurati bilan
bog'liq. Ushbu hujum pedagogik improvizatsiya harakati, ya'ni kommunikativ
qo'zg'alish bo'lib, o'qituvchining nigohi, mushaklarning safarbarligi, nutqning
intonatsion ekspresivligi yo'nalishida ifodalanadi.

O'quvchilarga "kommunikativ hujum" va "pedagogik improvizatsiya"
haqida keng tushuncha berib, uni tajriba sinflarda qo'llashni tavsiya etdik. Biz
o'qituvchilar darsga tayyorgarlik bosqichi jarayonida yaratiladigan o'quv
mashg'ulotlarning texnologik xaritasiga "Mening kommunikativ hujumim"
(motivatsion maqsadli bosqichida) ruknini kiritdik va uni maqsadli amalga oshirish
mezonlarini belgilanadi.

«To'xtab o'qish» elementi biz tomondan darslarida guruh bilan birgalikda
faol qo'llandi. «To'xtab o'qish» strategiyasi asosida tashkil etilgan o'quv
mashg'ulotlarida o'quvchining faolligi oshdi, yangi matndagi har bir fikrni tahlil
etdi, oldin o'rgangan bilimlarini hayotdagi voqea-hodisalar bilan solishtirdi va
umumlashgan to'g'ri xulosa chiqardi. Bu esa o'quvchida mantiqiy fikrlash,
tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi, o'quvchi o'zidagi bilimlarini mustahkamlab
amaliyotda qo'llay boshladi. «To'xtab o'qish» metodi o'quvchilar tomonidan
yangi matndagi har bir voqeani o'z hayotlarida uchragan voqealar bilan solishtirib,
har tomonlama fikrlash orqali to'g'ri yechim va xulosaga kelishini ta'minladi.

Biz tomonidan katta miqdordagi o'qish vaqtini talab qilmagan, qismlarga

bo‘linib qo‘llanilishi mumkin va shu bilan birga ulkan kommunikativ faoliyat salohiyatiga ega seminar texnologiyasi tajriba uchun tanlangan. O‘qituvchining shogirdlari bilan muloqoti bizning tajribamizda o‘quvchilar kommunikativ kompetentligini empatik darajasini shakllantirish vazifalari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘ziga xos maydon sifatida vujudga keldi va shuning uchun seminar texnologiyasini olib borgan o‘qituvchidan erkinlik, so‘zga egalik, xabardorlik talab qilindi. Biz seminar texnologiyalari orqali tanlov vaziyatlari doirasini talab darajasida kengaytirdik. Hammasi bo‘lib, tajriba davomida to‘rtta mahorat darsi o‘tkazildi:

1. «Kitob, so‘z va muhabbat»
2. «Yozuv ustaxonasi»
3. «Tushunish san’ati»
4. «Muallif bilan qanday qilib dialog o‘tkazish kerak?».

“Muhokama” usuli. Kommunikativlikka yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda o‘quv materiallarni o‘qib tushunishda va so‘zlashish mahoratini oshiruvchi o‘rganish usullaridan yana biri muhokama usuli hisoblanadi. O‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish darajasini oshirish uchun press formula maqsadga muvofiq. Press formulaga ko‘ra, o‘quvchi matnni o‘qib bo‘lgach, birinchi ustunga matn mazmuni bo‘yicha o‘zining fikrini beradi, nima sababdan bu fikrga kelganini ko‘rsatadi, matn ichidan buni ifodalovchi misol ko‘rsatadi va o‘quvchining matn bo‘yicha umumiy xulosasi ko‘rsatiladi.

Shunday qilib, ushbu texnika yordamida mos keladigan nutq konstruksiyalari ishlab chiqildi, fikrlarni sharhlashning individual uslubi rivojlantirildi, muhokamaga tayyorgarlik ko‘rish uchun 10-11-sinf o‘quvchilari turli axborot va ma’lumotnomalar bilan ishlashlariga to‘g‘ri keldi, bu ma’lum darajada tajribadagi guruh o‘quvchilari o‘rtasida ijobiy natijalarga erishishga yordam berdi.

«Kommunikativ o‘qitish va o‘rganish” usuli. Ushbu o‘rinda, o‘qituvchilarning dars o‘tish jarayonidagi o‘rni ikkinchi rolda, yani yordamchi bo‘lishini talab qiladi. Bu esa, o‘quvchilarga nisbatan erkinlik berish kerak degan

tushunchani emas, balki o'quvchilarga berilgan vazifalar orqali ular o'zi ixtiyoriy ravishda shaxsiy qobiliyatlarini sinf xonasida kichik guruhlariga bo'linib ishlashda kashf qilish va rivojlantirish deganidir.

O'tilgan dars va uning mavzulari rejasini o'quvchilar xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda tashkillashtirish nafaqat dars jarayonida o'rganishga nisbatan qiziqish va zerikmaslikni, balki o'quvchilarning o'zi ham o'zlari yoqtirgan mavzularida bemalol, o'z ixtiyorlari bilan muloqot olib borib xotirjamlik hissini o'zlarida va o'qituvchida ham aks ettiririshadi. Boshqa yana bir holatga ko'ra, so'zlashish mahoratiga asoslangan darslarda o'quvchilarning mavzu doirasida gapirish uchun so'z boyligi muammo bo'lib qoladi. Bu vaziyatdan chiqib ketishga yordam beruvchi eng oson yo'llaridan biri, nafaqat darsni mavzusini o'qib tushunishda hamda so'zlashish mahorati bundan tashqari boshqa mahoratlar, yani eshitish va so'zlashish, o'qish va yozish yoki umuman ushbu usulda ularning aks holatlaridan foshdalanish, shunga o'xshash vaziyatdan samarali chiqib ketish yo'lidir. Bu esa, o'qish mashqida berilgan matnlardagi so'zlar yoki eshitish mashqlarida takidlab o'tiluvchi so'zlar va ularning matndagi mazmuni ularda belgilangan mavzuda gapirish uchun yetarli so'zlar jamlanmasiga osonlik bilan erishishga yordam berdi.

“Fincha hikoya aytish” usuli. Tajriba-sinov jarayonida biz Finlyandiya ta'lim tizimining tadqiqot mavzusiga xos xususiyatlarini o'rganib, o'quvchilar kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning innovatsion tajribasi - “Fincha hikoyalar aytish uslubi”ni qo'lladik va bu usluni mamlakatimiz pedagoglari ommasi uchun tavsiya etdik.

Fin maktablarida ijtimoiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda “Hikoya aytish” uslubi keng qo'llanilayotgan ta'lim usullaridan biri sanaladi.

“Finlandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi” kitob muallifi Ilkka Taypalening e'tiroficha, fincha hikoyalar aytish uslubi-o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning innovatsion tajribasi sifatida baholangan. Fin maktablarida o'quvchilarning kommunikativ kompetentligi 4

daraja (boshlang'ich, moslashuvchan, asosiy, ijodiy) asosida rivojlantiriladi.

Ijtimoiy fanlar doktori, psixolog Monika Riixelya "Hikoyalar aytish uslubi – bu birdamlik hissini uyg'otishga yordam beruvchi muhim fin ijtimoiy innovatsiyasidir. «Hikoyalar aytish» uslubi 1980 yillarda bolalar psixologlari faoliyati doirasida o'ylab topilgan edi.

Fincha «Hikoyalar aytish» uslubidan foydalanishda suhbatning mavzusi va borishi oldindan kelishib olinmaydi. Hikoya baholanmaydi. Nima haqida va qanday so'zlab berishni hikoyachining o'zi hal qiladi. Shuningdek, nima haqida gapirishni istamasligini ham o'zi hal qiladi. O'quvchilar bir-biridan tortinmay o'z fikrlarini aytish, himoya qilish asosida til hodisasining qo'llanishi haqidagi xulosalarini, uning mazmunini qat'iylashtirishga erishdilar. Fincha "Hikoya aytish uslubi" og'zaki hikoyalarning boshqa usullaridan farq qiluvchi to'rtta bosqichdan iborat:

1. Hikoyani e'tirozlarsiz tinglash.
2. Hikoyani yozib olish.
3. Uni o'qish.
4. Hikoyachi xohishiga ko'ra ehtimoliy xatoliklarni tuzatish.

Fincha «Hikoyalar aytish» uslubi bu hikoyani yozib olayotgan tinglovchi va hikoyachi o'quvchining ichki suhbatida ishtirok etadigan tomonlarning o'zaro munosabati sifatida baholaydi. Ushbu uslub har bir kishida tanish va barchaga ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan tashqari, boshqa yana hech kimda bo'lmagan o'z tajribasi va atrofdagi olam haqidagi yig'ilgan ma'lumoti ham mavjuddir. Hikoyani so'zlab beruvchiga baho berilmaydigan vaqtlarda, u shuningdek o'z fikr va tajribalarini ham bayon etadi.

"3 darajali test" usuli. Uch bosqichli test g'oyasi o'quvchining rivojlanish darajalari tizimini (reproduktiv, konstruktiv va ijodiy) ularning o'zlashtirayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat maqsadlariga muvofiqlashtirishdan iborat edi, Bu maqsadga erishish uchun tajriba sinf o'quvchilarining o'quv yutuqlarini baholash tizimi ishlab chiqildi. Ushbu uslub adabiyot darslarida va qisman tarix va tarbiya darslarida qo'llangan. Avvalo, test o'quvchilarning darsdan tashqari

faolligini va uyda tizimli tayyorgarlikni rag'batlantirdi. Bu borada yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilar «avtomatik» tarzda sinovdan o'tdilar. Qolganlari, baholash baliga qarab, o'qituvchiga esse, tezis, ijodiy yozma ishlar topshirishlari va og'zaki suhbatdan o'tishlari kerak edi. Faqatgina nazoratning barcha bosqichlaridan o'tganlarga "a'lo" baho qo'yildi.

"Diskurs tahlil" usuli. Diskursda baho yakka shaxsning hayotiy tajribalari, baholanuvchi obyektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, tajribasi, ma'lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste'dodi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Har qanday harakat singari kommunikativ xatti-harakatlar vaziyatni tahlil qilish va baholash, maqsadni shakllantirish va tezkor reja amalga oshirish va (yoki) uni samaradorlikni baholashni o'z ichiga oladi.

Subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabat ifodalanishida baholash xarakteri muhim o'rin egallaydi. U baholanayotgan obyektning subyekt uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatga egaligiga hamda subyektning obyektga nisbatan talab va ehtiyojiga qarab belgilanadi. Subyektning obyektga nisbatan turli munosabat bildirishga undaydigan qarash va dalilillari baholash asosi hisoblanadi. Baholash asosi muqim emas, chunki jamiyat taraqqiy qilar ekan, kishilarning narsa va predmetlar, voqea -hodisalarga munosabati ham shunga mos holda o'zgarib turadi. Shunga bog'liq holda jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan meyorlar, baho mezonlari, qat'iylashgan tasavvurlar ham ma'lum bir o'zgarishlarga uchraydi. Bir davr uchun maqbul ko'rilgan o'lchov va mezonlar boshqa davrda qabul qilinmasligi, talab va ehtiyojlarga mos kelmasligi baholashning o'zgaruvchan tabiatini belgilaydi.

Baho tushunchasi diskursning asosiy tamoyillari biri hisoblanadi. Baholovchi diskursni tadqiq etish tilning birgina lisoniy xususiyatlarini emas, balki aloqani ta'minlashdagi xarakterli boshqa tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi. Baholash xarakteridagi diskursni uch yo'nalishda tadqiq qilish mumkin:

- 1) kommunikativ nuqtai nazardan;
- 2) ijtimoiy vaziyatlardagi o'zaro ta'sir sifatida;

3) lisoniy birliklardan foydalanish usuliga qarab o'rganish.

Bu esa, insonning o'y-kechinmalari, orzu-umidlarini baholovchi til birliklarining ta'siri va bu vositalardan qanday maqsadda foydalanish bo'yicha muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi. Diskurs tahlili baho konseptining pragmatik qatlamlarini tadqiq qilishda samarali usul hisoblanadi.

Kommunikativ maqsadga erishish uchun so'zlovchi o'z jumlasini shunday tuzishi lozimki, u uchun eng muhim bo'lgan jihatni ta'kidlash birinchi navbatda turishi lozim. Shunga ko'ra so'zlovchi hamsuhbatida kutilgan reaksiyani qo'zg'atadi, ya'ni unga ta'sir o'tkazadi. Baholash kategoriyasiga oid so'zlarning kommunikativ vazifalaridan biri - ularning ta'sir etishga funksional xoslanganligi bilan belgilanadi. Baholovchi lisoniy birliklarning murakkab tabiati muloqot nazariyasiga pragmatikaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qarashni talab qiladi. Mavjud aloqa jarayonini modellashtirish hamisha pragmatik yo'nalish bilan bog'lanadi.

Muayyan nutqiy vaziyatda so'zlovchi ma'lum bir kommunikativ maqsadni ko'zlab, hamsuhbatiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Kommunikativ maqsad, shuningdek, so'zlovchining subyektiv munosabati, aloqaning ta'minlanishi, nutqiy vaziyatning o'zi ham lisoniy vositalarning tanlanishiga, muloqot mavzusi va shakliga doimo ta'sir qiladi. Boshqacha aytganda, so'zlovchi ko'zlangan natijaga erishish uchun qat'iy harakat usullariga rioya qilishi lozim. Shunda kommunikativ maqsadga ko'ra tanlangan lisoniy birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Birmingem universiteti professorlari Sinclair and Coulthard (Sinklear va Kaulfard)larning diskurs birliklari iyerarxiyasiga asoslangan o'qituvchi-o'quvchi so'zlashuvi modeli ham mashhur bo'ldi.

10-11-sinf o'quvchisining o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirishda samarali ekanligini ko'rdik. Biz ataylab dars o'tishga, dars davomida amalga oshiriladigan o'quvchilarning o'z-o'zini anglash ko'lamiga alohida e'tibor qaratdik.

V. TESTLAR

1. O'zbek tili o'qitish metodikasining predmeti, maqsad-vazifalari qaysi javobda to'liq yoritilgan?

A. Ona tilini o'rganish vositalari hamda shart-sharoitlari bahs yuritadi.

*B. Nimani o'rgatish? Qancha o'qitish? Nima uchun o'qitish? Qanday usullar bilan o'qitish? kabi savollarga javob beradi.

S. O'quvchi va o'qituvchining vaqtini hamda kuchini tejaydi.

D. A va S E. To'g'ri javob berilmagan.

2. O'zbek tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlarini aniqlang.

*A. Kuzatish, tajribalarni o'rganish, tahlil etish va umumlashtirish

B. Ilg'or o'qituvchining faoliyatini, o'qitish usullarini o'rganish

S. Metodik merosni o'rganish

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

3. O'zbek tili o'qitish metodikasi qaysi fanlar bilan ko'rrok aloqada bo'ladi?

*A. Tilshunoslik, pedagogika va psixologiya

B. Tarix, geografiya

S. Matematika fanlari bilan.

D. S va D E. To'g'ri javob berilmagan.

4. Ona tilining umumiy ta'lim sistemasida tutgan o'rni va ahamiyati qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A. Ona tili o'quvchining aqliy mehnat malakalarini o'stiradi.

B. Ona tili bilan jiddiy shug'ullangan o'quvchi yuksak saviyali hamda madaniyatli bo'ladi.

*S. Ona tili o'quvchilarning aqliy, axloqiy va estetik taraqqiyotida katta rol o'ynashi bilan maktab ta'limida yetakchi o'rin tutib keldi va shunday bo'lib qoladi.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

5. Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustakil fikrlash, ijodiy fikr mahso'lini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishi va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim. Bunday ishlar qaysi tarixiy hujjatda asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

*A. Ona tili konsepsiyasi

B. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun

S. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi

D. B va S

E. To'g'ri javob berilmagan

6. Qaysi javobda ona tili dasturlari haqida to'liq ma'lumot berilgan.

*A. Ona tili dasturi ona tilidan o'quvchilarga beriladigan bilimlar hajmini va mazmunini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

B. Ona tili dasturi o'quvchilar yoshi va bilim darajasi hisobga olingan holda tuziladi.

S. Dastur tuzishda o'qitishning hayotiylik prinsipi nazarda tutiladi.

D. B va S

E. To'g'ri javob berilmagan.

7. Ona tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

A. O'qitishning o'quvchilar saviyasiga mos bo'lishi.

B. Ilmiylik, sistemalilik va izchillik

*S. Yuqoridagilarning hammasi.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

8. Ona tili dasrlarini hayotga bog'lash nimalarni taqozo etadi?

A. Grammatik qoidalar uchun jonli nutq va badiiy adabiyot namunalaridan misollar keltirish.

B. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini hamda ijodiy qobiliyatini o'stirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanish.

S. Hayotni to'g'ri mushohada etish

*D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

9. Ona tili kursi bo'limlari orasidagi bog'lanish va munosabatni qanday amalga oshirish mumkin?

A. Bahzi mavzular ona tili kursining bir necha bo'limi bilan bog'lanadi.

B. Stilistika bilan bog'liq bo'lgan har qanday mavzu stilistik malaka hosil qilishda foydalaniladi.

S. Morfologiya darslarida ayrim formalarning sintaktik tomonini, sintaksis dasrlarida esa u yoki bu grammatik kategoriyaning morfologik xususiyatlarini eslash o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi.

*D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

10. Ona tili va boshqa fanlar orasidagi aloqa qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Ona tili o'qitish oldidagi murakkab vazifalarni bajarishda boshqa fanlar ham ma'lum hissa qo'shadi.

*B. O'quvchilar nutqini o'stirishda ona tili va adabiyot fanlarining vazifasi beqiyosdir.

S. Sodda garlarni belgilash uchun o'quvchilarga ega va kesimlarni aniqlashni o'rgatish lozim.

D. A va S E. To'g'ri javob berilmagan.

11. Ona tili o'qitishda ongillik va faollik qaysi javobda mukammal berilgan?

*A. Darsda qo'llaniladigan xilma-xil metod va usullar o'quvchilar faolligini oshiradi.

B. Ona tili o'qitishda engillik va faollik juda muhim o'rin tutadi.

S. Qoida-tahriflar, tasniflar yodlatiladi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

12. Ona tili o'qitishda ko'zgazmalilikning afzalligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

*A. O'quvchilar bilimini oshirish va o'qituvchining mehnatini samarali qilish vositalaridan biri o'qitishning ko'rgazmali bo'lishidir.

B. O'z kasbini, o'z fanini sevgan o'qituvchi chiroyli, mazmunli ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi.

S. O'quvchi ko'rish orqali ham rredmet-hodisa haqida bilim oladi.

D. B va D E. To'g'ri javob berilmagan.

13. O'quvchilar bilimining mustahkamligi printsiipi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. A. Qodiriy, Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhor, M. SHayhzoda kabi ajoyib so'z ustalaridan bizga buyuk meros qoldi.

*B. Olingan bilim va malakalar amaliy faoliyatda yordam bersa, o'quvchilar bilimi yanada boyishi mumkin.

S. Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda

Ulug' Alisherning asriy nidosi. (G'. G'.)

D. A va S E. To'g'ri javob berilmagan.

14. O'qitishning tushunarli va engil bo'lishi qaysi javobda ko'rsatilgan?

*A. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilar yoshini, sinfning tayyorligini, materialning harakterini hisobga olishi lozim.

B. Darsda munozarali voqea-hodisalar haqida fikr yuritish mumkin.

S. Uzundan-uzoq, mavhum jumlarlar o'quvchilar anglash jarayoniga salbiy ta'sir etadi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

15. Ona tili o'qitishda izchillik qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. 5-sinf o'quvchilari bir necha o'qituvchilar qo'lida ta'lim oladi.

B. 5-8-sinflardan boshlab o'quvchining ish formalari murakkablashib boradi.

*S. 5-9-sinflarda ona tilining izchil kursi o'rganiladi.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

16. O'quvchilarning umumiy taraqqiyoti va maktabda ona tili o'rgatish

*A. O'quv dasturlari tuzishda, avvalo, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti hisobga olinadi.

B. O'z fikrlarini erkin va savodli ifodalashga ojiz bo'lgan muhandisni mukammal ziyoli deb bo'lmaydi.

S. Darsliklarda fan yutuqlariga, ayniqsa, nazariy tushunchalarga munosib o'rin beriladi.

D. B va D E. To'g'ri javob berilmagan.

17. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirish yo'llari.

*A. Ona tili orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalari muntazam taraqqiy ettirib beriladi.

B. Qiyoslash uso'li ona tili o'qitish metodikasida o'ziga xos o'rin tutadi.

S. Tahrif yo qoida aytilib, tegishli misollar orqali asoslanadi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

18. Metod haqida umumiy tushuncha.

*A. Metod yunoncha so'z bo'lib, yo'l-usul mahnosini anglatadi.

B. Grammatikadan o'quvchilarga bilim berishda suhbat, bayon, ta'rif va qoidalar ustida ishlash qo'llaniladi.

S. Metod tanlashda ona tili kursi bo'limlarining o'ziga xos xususiyatlariga ham ahamiyat beriladi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan

19. O'qituvchining bayoni ...

*A. O'qituvchining bayoni ona tili dasrlarida eng ko'r qo'llanadigan metod bo'lib, u o'qituvchi nutqi oldiga katta mantiqiy talabalar qo'yadi.

B. Bayonning izchil bo'lishi o'tiladigan mavzuni mahlum bir reja asosida izohlashga bog'liq.

S. Sodda, mazmunli, ifodali, izchil nutq o'quvchilarda chuqur tahsurot qoldiradi.

D. B va S

E. To'g'ri javob berilmagan.

20. Suhbat metodi ...

*A. Suhbat o'quvchilar faolligini oshiradi, u uch xil bo'ladi; axborot harakteridagi, evristik va o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladigan suhbat.

B. Suhbat vaqtida o'qituvchi bahzan butun sinfga qarata qo'shimcha savollar berishi mumkin.

S. Alternativ savollar qo'yilishining ham o'rni, o'lchovi va sharti bor.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

21. Mashqlar ustida ishlash.

*A. O'quvchilarning ona tilidan olgan bilim-malakalari turli mashqlar orqali mustahkamlanadi.

B. O'quvchilarning ona tilidan olgan bilim va malakalari ta'limiy bayon va insholar orqali mustahkamlanadi.

S. Tarix, matematika va himiya darsliklaridan tanlangan misollar fanlar orasidagi munosabatni anglash uchun imkon beradi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan

22. Darslik va qo'llanmalar bilan ishlash.

A. Yangi dasturlar asosida ishlashga o'tish munosabati bilan yangi o'zbek tili darsliklari vujudga keldi.

*B. Darsliklarda, ayniqsa, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ustirish masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

S. Dastur materiallari muntazam va mantiqiy izchil bayon etilgan davlat hujjati – darslik o'qituvchining asosiy va eng yaqin yordamchisi bo'lib, uning katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, dastavval, o'quvchilarni mustakil ishlashga o'rgatishda ko'rinadi.

D. A va S E. To'g'ri javob berilmagan

23. Ona tili darslarida texnika vositalaridan foydalanish.

A. Texnika vositalari o'quvchilar nutqini va logik tafakko'rini, mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish uchun xizmat qiladi.

B. Diapozitiv va diafilmlar darsda kuzatilgan asosiy maqsadni amalga oshirishda qo'shimcha vositadir.

*S. Hozirgi vaqtda diafilpm, diaroziv, eridiaskor, filpmmoskor, magnitafon, radio, kino hamda televidenie, elektr tochkali doskalar va boshqa texnika vositalari ona tili o'qituvchilarining juda yaqin yordamchi bo'lib qoldi. Ko'rgazmalilik faol o'qitish metodlaridan biridir.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

24. Ona tili o'qitishda ekskursiya.

A. Ekskursiya taassurotlari darsda muhokama qilinadi.

*B. Ekskursiya ona tili o'qitishda nisbatan oz qo'llanilsa-da, mohiyat ehtibori bilan ona tili o'qitish sistemasida o'ziga xos o'rin tutadi.

S. Ekskursiya ko'proq insho yozish uchun material beradi.

D A va D E. To'g'ri javob berilmagan.

25. Ona tili darslarining tipi.

A. Darsning eng katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchi har bir darsda nimadir yangi narsa o'rganadi.

B. Har bir dars oldiga qator didaktik talablar qo'yiladi.

*S. Darsni uch katta tipga bo'lish mumkin:

A) yangi bilim berish darsi;

B) o'tilganlarni mustahkamlash darsi;

V) bilim va malakalarni tekshirish darsi.

D. A va S E. A va B

26. Ona tili darslarining tuzilishi.

A. Har bir darsda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mustaqil mashq qiladilar.

*B. Dars qat'iy jadval asosida o'tkaziladigan 45 minutlik mashg'ulot bo'lib, unda muayyan bir o'quvchilar guruhi o'qituvchi rahbarligida ishlab, xilma-xil ish usullaridan unumli foydalanishni taqozo etadi.

S. Ilgor o'quvchining darsi o'zining ijodiy характери bilan ajralib turishi zarur.

D. A va B E. A va S

27. Yangi materialni izohlash.

A. O'qitishning bu psixologik jarayoniga o'tishi pedagog'lar ham katta baho berganlar.

*B. Yangi bilim berish darslarining asosiy qismi o'quvchi notanish, yangi narsani berish bo'lib, bu darsning kulminatsion punkti hisoblanadi.

S. Har bir yangi materialda oldingi mavzular o'z ifodasini topgan bo'lishi zarur.

D. A va S E. To'g'ri javob berilmagan

28. Ona tilidan berilgan bilim va malakalarni mustahkamlash.

*A. Mustahkamlash shartlari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib, xilma-xil vositalardan foydalaniladi, o'quvchi irodasi, qobiliyati o'stiriladi.

B. Mustahkamlash darslarida testlardan foydalaniladi.

S. Mustahkamlash darslarida o'quvchilar faolligini oshirishga alohida ehtibor beriladi.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

29. O'quvchilar bilimini tekshirish.

A. O'quvchilar bilimi grammatik tahlil orqali tekshiriladi.

B. Mustahkamlash darslarida ijodiy-ilmiy harakterdagi yozma ishlar o'tkaziladi.

*S. O'quvchilar bilimi nazorat diktanti, bayon yoki insho, grammatik tahlil va testlar orqali tekshiriladi.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan

30. Ona tilidan uyga vazifa berish va uni tekshirish.

*A. Uy vazifalari ona tilidan sinfda o'tkazilgan mashg'ulotning bevosita davomi bo'lib, o'quvchilar mustakil ish faoliyatini yaxshilandi.

B. Uyga hamma turdagi mashqlar vazifa qilib beriladi.

S. Uyga faqat o'tilgan mavzular bo'yicha torshirik beriladi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

31. O'quvchilardan so'rash

A. Istalgan vaktida so'roq bilan o'quvchilarga murojaat qilish mumkin.

B. O'quvchi o'qituvchining savoliga o'z urnida turib javob beradi.

*S. Ona tili darslarida ko'rroq frontal savollardan foydalaniladi. Bunda savollar

butun sinfga berildi-yu, biroq rejalashtirilgan o'quvchidan so'raladi.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan

32. Reja va uning turlari

A. Ona tili materiallarini rejalashtirilganda morfologiya va sintaksis orasidagi uzviy bog'lanish hisobga olinadi.

B. O'qituvchi o'z rejasini o'quvchilar saviyasiga qarab belgilaydi.

*S. Uch xil rejadan choraklik va tematik reja.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

33. O'zbek tili o'qitishda grammatikaning ahamiyati va o'rni.

*A. Maktabda grammatika o'qitishning maqsadi o'quvchilarga so'z tuzilishi va gar qurilishi haqidagi qonun-qoidalarini o'rgatishdan iborat.

B. O'quvchi grammatik qoidalar asosida adabiy til me'yorlarini egallaydi.

S. Nutq qobiliyati inson kamolotida o'ziga xos ahamiyatga molikdir.

D. To'g'ri javob berilmagan. E. B va S

34. Maktab grammatikasi bilan ilmiy grammatikaning o'zaro munosabati.

*A. Ilmiy va maktab grammatikasidagi o'zviy bog'lanish o'quvchilar «hazm qiladigan» qoidalar o'qitiladi.

B. Grammatik bilimlar o'quvchining nutqini o'stiradi.

S. Ilmiy grammatika va maktab grammatikasi orasida farq yo'q.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

35. Grammatika mashg'ulotlarini unumli o'tkazishning umumiy shart-sharoitlari.

A. So'zga boy o'quvchining orfografik va runktuatsion malakasi ham mustahkam bo'ladi.

B. Mashq vaqtida o'quvchilar o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni bilib olishlari shart.

*S. Grammatika o'qitishning muvaffaqiyati ko'p faktorlarga bog'liq bo'lib, o'quvchi lug'at boyligi keng bo'lsa, unga grammatik bilim berish ham oson bo'ladi.

D. A va B E. To'g'ri javob berilmagan.

36. Grammatik ta'rif va grammatik terminologiya.

*A. Grammatik tushunchalar va hodisalar turli grammatik ta'rif yo qoidalar orqali izohlanadi.

B. Ma'nosi o'ta mavhum terminlar o'qituvchi tomonidan izohlanishi shart.

S. O'zbek tiliga oid ilmiy va darsliklarda ta'riflashning mantiqiy asoslariga amal qilingan.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

38. Maktabda fonetika o'qitishning ahamiyati va vazifalari.

*A. Fonetika tilning tovushlar sistemasini o'rgatadi, uni sistemali o'qitish 5-sinfidan boshlanadi.

B. Adabiy tildagi unli va undosh fonemalar ko'rgina o'zbek shevalarida bir xil talaffuz etilmaydi.

S. O'quvchi o'zbek tilidagi tovush o'zgarishlarini bilmay turib, so'z strukturasini yaxshi tushunmaydi.

D. B va D E. To'g'ri javob berilmagan.

39. Maktabda morfologiya o'qitishning ahamiyati va vazifalari.

*A. Morfologiya so'zning shaklini va ma'lum belgilar asosida guruhlariga bo'linishini, so'z turkumlarini o'rgatadi.

B. Boshqa so'z turkumlarini o'rganish esa bir o'quv yiliga mo'ljallangan.

S. 5-sinfdan boshlab morfologiyani izchil o'tish boshlanadi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan.

40. So'z tarkibi va so'z yasash ustida ishlash.

*A. So'z tarkibini o'rganish so'z turkumlarini o'qishga zamin hozirlaydi.

B. So'z yasash ham so'z tarkibini o'rganish bilan o'zviy bog'liqdir.

S. So'z tarkibini o'rgatishda o'zak va qo'shimchalardagi unli hamda undosh tovushlarning o'zgarish hollariga alohida ahamiyat beriladi.

D. B va S E. To'g'ri javob berilmagan

VI. GLOSSARIY

Davlat ta'lim standartlari (DTS) – muayyan fanlardan o'quvchilarning yoshi va fan harakteridan kelib chiqib o'zlashtirishlari zarur deb belgilab qo'yilgan norma, daraja

Deduksiya – fanning tadqiqot usullaridan biri bo'lib, bir hechta holatlar uchun umumiy bo'lgan belgi asosida umumiy xulosa chiqarish

Induksiya – bir umumiy belgi asosida tushuntirilgan bir nechta holatlarni alohida ajratib ko'rsatish

Kompetensiya – lotnichadan layoqatlilik, munosib bo'lish, loyiq bo'lish ma'nolarini bildirib, hozirgi paytda metodikada pedagogning o'z mavqei va darajasiga mosligi ma'nosida faol qo'llanilmoqda

Metod – ko'zlangan biror maqsadga yetish uchun tanlangan usul, yo'l

Metodika – o'qitish metodlari majmuasi

Bilim – biror fan sohasi nazariy materiallarining o'zlashtirilish darajasi, holati

Ko'nikma – biror aqliy harakatni amalga oshirishda tajribalarga tayanish, ya'ni bir mashg'ulotni bajarishda takrorlashlar asosida shakllangan optimallashtirish

Malaka – bilim va ko'nikmalar asosida insohda biror faoliyatni olib borishga nisbatan shakllangan qobiliyatning yuksak darajasi

Interfaol usul – ona tili o'qitishda o'quvchilarda kreativlikni oshirish uchun qo'llaniladigan zamonaviy o'qitish usuli

Kreativlik – topqirlik, zukkolik, ijodkorlik. Ona tili darslarida o'quvchilarning til sezgirligi hamda yangi dars texnologiyalarini o'zlashtirishdagi faolliklariga nisbatan qo'llaniladi

An'anaviy dars – dars bosqichlari va qolipi an'anaviy dars me'yorlari asosida rejalashtirilgan dars turi

Noan'anaviy dars – dars bosqichlari va qolipi an'anaviy tarzdan o'zgacha holatda rejalashtirilgan dars turi

Yangi dars bayoni – o'quv soatining bosqichlaridan biri, unda yangi asosan darsning asosiy nazariy bilimlari o'quvchilarga yetkaziladi

Mustahkamlash – darsning yangi mavzu yoki o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun mo'ljallangan bosqichi yoki alohida dars turi

Nazorat darsi – olingan bilimlarni nazoratdan o'tkazish, nazorat qilish va ularni baholash uchun ajratilgan maxsus dars soati

Til – Nutq tashkil etib, fikr, his-tuyg'u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi

Nutq – Tilning amaliyot shakli, voqelanishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni.

Uslubiyat – Til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, funksional-uslubiy, emotsional-ekspressiv bo'yog'i, shuningdek, nutqda til vositalarini maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo'llash haqidagi ta'limot.

Adabiy til – Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli.

Og'zaki adabiy til – Tovush (talaffuz) bilan ifodalangan nutq.

Yozma adabiy til – Nutq tovushlarini maxsus grafik belgilar vositasida yozish bilan ifodalangan nutq.

Fonologik orrozitsiya – fonemalarning farqlovchi belgilari asosida bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi.

Oddiy so'zlashuv leksikasi – voqelikni odatda qo'polroq, past harakteristika bilan ifodalash xususiyatiga bo'lgan, adabiy nutq me'yorlaridan chetga chiqadigan so'z, Grammatik shakl va tuzilmalar keng ishlatiladigan nutq turi.

Dialektizmlar – biror dialektga xos bo'lgan til birliklari.

Maqol – chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo'lgan folklore janri.

Matal – hayotiy voqelikni ixcham shaklda emotsional-ekspressiv baho bilan tasvirlovchi ifodalar.

Ega – gapning bosh bo'lagi

Kesim – gapning asosiy markaziy bo'lagi

Aniqlovchi – belgi mahnosini bildiruvchi ikkinchi darajali bo'lak

To'ldiruvchi – obhekt mahnosini bildiruvchi ikkinchi darajali bo'lak

Hol – holat mahnosini bildiruvchi ikkinchi darajali bo'lak

Bosh bo'lak – ega, kesim

Undalma – fikr qaratilgan shaxs yoki predmet mahnosini bildiruvchi uchinchi darajali bo'lak

Kirish bo'lak – gapda so'zlovchining baho munosabatini bildiruvchi uchinchi darajali bo'lak

Agglyutinativ tillar – o'zak va qo'shimchalar ma'lum ketma – ketlikda joylashuvchi, o'zak va qo'shimchalar chegarasi doimo aniq sezilib turuvchi tillar

Matn – Yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst.

Nutq uslublari – Til uslublarning nutqning muayyan ko'rinishlarida namoyon bo'lishi.

Xalq adabiy tili - jonli xalq tili materiallari asosida shakllangan til.

Oddiy so'zlashuv leksikasi – voqelikni odatda qo'polroq, past harakteristika bilan ifodalash xususiyatiga bo'lgan, adabiy nutq me'yorlaridan chetga chiqadigan so'z, Grammatik shakl va tuzilmalar keng ishlatiladigan nutq turi.

Tarixiy so'zlar – o'tmishga oid voqea-hodisalarni ifodalaydigan, bu voqea-hodisalarni nomlash maqsadida hozirgi tilda ishlatiladigan so'z.

Eskirgan so'zlar – bugungi kunda mavjud bo'lgan voqea-hodisalarning eski nomi

Neologizmlar – yangi narsa, tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug'aviy birlikka aylanib ketmagan so'z yoki iboralar.

Leksik idiosinkraziya – birinchi duch kelgan kishiga, ayniqsa, eski til me'yori bilan tanish keksa avlodga g'ayritabiiydek tuyulgan yangi so'z.

Individual nutq neologizmlari (okkazionalizmlar) – mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z.

O'zlashma so'zlar – O'zga tildan qabul qilingan so'z.

Vulgarizmlar – dag'al so'z, dag'al ibora.

Ma'noning torayishi – tarixiy taraqqiyot jarayonida leksema ma'nosi hajmi (ko'lami) ning torayishi.

Ma'noning kengayishi – tarixiy taraqqiyot jarayonida leksema ma'nosi hajmi (ko'lami) ning kengayishi.

Metafora – bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomonidan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish.

Metonimiya – bir predmet, belgi, harakat nomini o'zaro tashqi yoki ichki bog'liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo'llash.

Sinekdoxa – bir predmet nomining boshqa predmetga butun va qism munosabati asosida ko'chishi, butunning nomi qismning nomi va aksincha bo'lib qolishi.

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O'zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O'zbekiston, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi. “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6084-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” gi 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

19. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.
20. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg‘ona: 2016.-108 b.
21. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik.- T.: Akadem.nashr, 2012. - 416 b.
22. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.
23. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.
24. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.
25. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.
26. Hakimov M. O‘zbek pragmalingsistikasi asoslari. -T.: Academnashr, 2013. - 174 b.
27. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O‘z.R. FA TAI, 2000-47b.
28. Safarov Sh. Kogitiv tilshunoslik. -Jizzak: Sangzor, 2006. -91b.
29. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, -T.: «Fan», 1992, 254 b.

IV. Internet saytlar

30. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
31. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
32. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
33. <http://ziyonet.uz> - Ta’lim portali ZiyonET
34. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi